

**O'QUVCHILARGA SIFAT SO'Z TURKUMINI RANGLAR ORQALI  
IFODALANGAN BARQAROR BIRLIKLER BILAN O'RGATISH  
METODIKASI**

**METHODOLOGY OF TEACHING STUDENTS ADJECTIVE  
VOCABULARY WITH STABLE UNITS REPRESENTED BY COLORS**

**МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПРИЛАГАТЕЛЬНОЙ ЛЕКСИКЕ  
С УСТОЙЧИВЫМИ ЕДИНИЦАМИ, ПРЕДСТАВЛЕННЫМИ ЦВЕТАМИ**

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti assistent o'qituvchisi  
Mominova Yulduz Aminboyevna*

*Assistant teacher of Toshkent Humanitarian Subjects University  
Yulduz Aminboyevna Mominova  
E-mail: [ymominova7@gmail.com](mailto:ymominova7@gmail.com)*

*Orcid: 0009-0002-5416-2032*

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabasi  
Masharipova Nargiza Rustamovna*

*First-year student of the Primary Education at Tashkent Humanitarian Subjects University  
Masharipova Nargiza Rustamovna*

**Annotatsiya:** Sifat so'z turkumini rang orqali ifodalangan barqaror birkmalar orqali o'rghanish katta samara beradi. O'quvchilarni har tomonlama yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun ta'lif jarayoniga zamonaviy yondasha olishimiz kerak. Ona tili darslariga ham noan'anaviy uslubda dars jarayonini tashkil qilish va uni ta'lif mazmuni bilan hamohang tarzda olib borish, dars o'tishning innovatsion usullarini topishga va talablarini bajarishga zamin yaratadi. Maqolada ham sifat turkumini shular asosida qanday tartibda o'tish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'z:** sifat, barqaror birlit, metod, daraja, yasalish, ma'no, maqol va rang.

**Аннотация:** Изучение прилагательных через устойчивые сочетания, выраженные цветом, очень эффективно. Нам необходимо уметь применять современный подход к образовательному процессу, чтобы воспитать из учащихся зрелых и всесторонне развитых личностей. Организация учебного процесса нетрадиционным для занятий родным языком образом и проведение его в гармонии с содержанием образования создает основу для поиска

инновационных методов обучения и удовлетворения предъявляемых требований. В статье также представлена информация о том, как сдать категорию качества на их основе.

**Ключевые слова:** качество, стабильная единица, метод, уровень, изготовление, смысл, пословица и цвет.

**Abstract:** Studying adjectives through stable combinations expressed by color is very effective. We need to be able to take a modern approach to the educational process in order to raise students to become mature and well-rounded individuals in all respects. Organizing the lesson process in an unconventional way for mother tongue classes and conducting it in harmony with the educational content creates a foundation for finding innovative methods of teaching and meeting the requirements. The article also provides information on how to pass the quality category based on these.

**Key word:** quality, stable unit, method, level, making, meaning, proverb and color.

**Kirish.** Shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda yangi-yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil qilish kerak bo‘ladi. Bu jarayon esa o‘qituvchidan juda katta mas’uliyat talab qiladi. O‘z fanini sevadigan va shu fanni yaxshi biladigan o‘qituvchi o‘quvchilarga oson tarzda noan’anaviy tarzda tashkil qiladi.

Bu jarayon o‘quvchilarni olgan bilimlarini hayot bilan bog‘lagan holda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishi lozim. O‘qituvchi dars jarayonida turli xil yangi interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning tafakkur dunyosini kengaytirish bilan birga, mustaqil tahlil qilish va erkin muloqot qilish ko‘nikmasi ham shakllanadi. Mavzuni yaxshi o‘rganish asosida o‘quvchilarda yangi-yangi g‘oyalar shakllanadi va har bir terminni ma’nosini sharhlashga harakat qiladi. Shu bilan birga o‘quvchilarning diqqat e’tibori va tasavvurlari rivojlanadi va olgan bilimlarini idrok qilish orqali ham faolligi oshadi.

Sifat so‘z turkumini o‘quvchiga qiziqarli va eslarida qoladigan shakllarda o‘rgatish katta natija beradi. Ayniqsa, sifatlarni o‘rganishda rang bilan bog‘liq bo‘lgan, maqollar orqali o‘rganish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantiradi. Maqollarning ham ma’nosini izohlashi va mustaqil fikr bildira olish qobiliyatini, ham shakllantiradi.

Sifat predmetning belgisi rangi, hajmi, shakl va ko‘rinishi, maza-ta’mi, xususiyati, hidi, o‘rin va paytga munosabatini bildiradi. Sifatning ortida har doim ot bo‘ladi. Ya’ni otga bog‘lanadi degani. Masalan: baland bino, qizil qalam, qiziqarli uchrashuv, chiroyli ko‘ylak, go‘zal tabiat va kuchli shamol kabi birliklarni olishimiz mumkin.

Sifatni otga bog'lanishi va shu ot so'z turkumidan so'roq berish yo'li bilan ham aniqlash mumkin. Sifat+ot shaklidagi formula asosida so'z birikmasi asosida o'rgatish va ot+sifat shaklida esa, aksincha, gap hosil bo'lishi mumkin. Masalan, yashil sumka bunda sifat+ot shaklida va sumka so'zidan yashil sifatiga so'roq beriladi, ya'ni qanday? so'rog'ini oladi. Agar sumka yashil deb o'zgartirsak gap hosil bo'ladi va so'rog'i ham o'zgaradi. Shu tariqa sifat turkumini aniqlash ham mumkin.

Sifat turkumini o'rgatishda ketma-ketlikka amal qilgan holda o'rgatish kerak. Buni quyidagicha o'rgatish mumkin:

Birinchidan, sifat turkumini nima ekanligini va so'roqlarini o'rgatish.

Ikkinchidan, sifatning otga bog'lanishini.

Uchinchidan, sifatning ma'no turlari.

To'rtinchidan, asliy va nisbiy sifatlarni o'rgatish.

Beshinchidan, sifat darajalarini o'rgatish.

Oltinchidan, sifatlarning yasalishi.

Yettinchidan, sifatlarning tuzilishini tahlil qilish.

Sakkizinchidan, sifatlar imlosini ham o'rgatish.

Shu tarzda izchillik bilan o'rgatish tushunarli qilib o'rgatish kerak.

### **ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA**

Sifat turkumini o'rgatishda olimlarimiz turli usullarni qo'llab tahlil qilib berishgan. Har biri sifatning o'ziga xos bo'lgan farqli va umumiyligi jihatlarini ilmiy jihatdan asoslab berishgan.

Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi darajalanuvchi so'z sifat deyiladi. Masalan, yaxshi gapirmoq, chiroqli ko'yak. Boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat ulardan farqli ravishda barqaror va turg'un belgi ifodalaydi. Masalan, gul-qizil deganda barqaror belgi, gul qizardi deganda esa o'zgaruvchi belgi namoyon bo'lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, qizg'ish-qizil-qip-qizil.<sup>1</sup>

Sifatlarni o'rganishda, ayniqsa, ma'no turlarini o'rganish natijasida so'zning o'z va ko'chma ma'no ifodalashini ham bilish mumkin.

Sifat turkumi ham o'z va ko'chma ma'noga ega bo'lib, buni ko'proq rang bilan bog'liq sifatlarda ko'rish mumkin.

Sifatni lug'aviy ma'no turlariga ajratish nisbiy. Ma'no ko'chishi natijasida ma'no turi ham o'zgaradi. Masalan, achchiq gap( maza-ta'm emas, xil-xususiyat), qizil

<sup>1</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.O'quv qo'llanma.-T., "Fan va texnologiya", 2009. 237-bet.

so‘z (rang-tus emas, xil-xususiyat), shirin olma (maza-ta’m ifodalasa), shirin bola (xususiyatni ifodalagan)<sup>2</sup>.

Rang bilan bog‘liq bo‘lgan sifatlarni o‘rgatishda, ya’ni denotativ va konnotativ ma’nolarini ifodalashda katta imkoniyat yaratadi. Bu vaqtida sifatlarning ma’no turlari o‘zaro bir – biridan farqli jihatlari farqlanadi va tushuntiriladi. Ranglar bilan bog‘liq holda o‘rganishda zid ma’nolilik va shakldoshlik asosida ham tahlil qilib o‘rgatish mumkin. O‘quvchilar bularni farqlash uchun sifat ifodalayotgan ma’no izohlanishi va shu orqali oson gap mazmunini farqlay olishadi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sifat so‘z turkumini o‘rgatish jarayonida ranglar orqali taqdim etish usuli nafaqat o‘quvchilarning diqqatini tortadi, balki tushunishni yengillashtiradi. Ranglar – bolalarda kattaroq hissiy tajribalar yaratadi va sifatlarni yanada jonlantiradi. Sifatlarni ranglar bilan taqqoslash orqali o‘quvchilar o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va tushunarli qilish mumkin. Bunday ranglar ifodalagan ma’nolar va shu bilan birga bolalarning mantiqiy fikrlash va ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Sifatlarni noan’anaviy tarzda , ranglar bilan bog‘liq maqollar o‘qituvchilarni ushbu mavzuni oson va qiziqarli tarzda o‘rgatishda yordam beradi.

Bunda maqollarni “Ranglar bilan o‘qiymiz” kichkina o‘yinini tashkil qilish bilan o‘tkazish mumkin. Bunda katakchalarga ranglarni qo‘yishimiz va maqolda shu rangni tushurib qoldirish kerak.O‘qituvchi tomonidan rang ifodalangan qismini tushurib o‘qib bola qaysi rang ekanligini tez topishi kerak bo‘ladi. Bu bolada ranglarni farqlash bilan birga nutqiy madaniyat va ijodkorlik qobiliyatini ham shakllantiradi.

		.....ko'ngil — yara ko'ngil. ( qora)
		.....yuzing qizartirma, Uzun tiling qisqartir. (qizil)
		Sabr tagi — ..... oltin, Sabr bilan chiqar oting. (sariq)
		Qizil tilim bo'lmas Qishlar edim elimda. ..... tilim bo 'lmasa, Yayrar edim elimda. (yashil)

<sup>2</sup> B.Mengliyev. O'.Xoliyorov. N.Abdurahmonova. O‘zbek tilidan qo‘llanma. T., “Akademnashr”,2015. 229-bet.

	<p>..... tangang ortiq bo'lsa, Qora kuningga saqla. (oq )</p>
--	---

Shu tarzda o'quvchilar maqollar o'rniga ranglarni to'g'ri qo'yib bo'lishgandan so'ng, maqollarning ham ma'nosini izohlashlashlari kerak bo'ladi. O'quvchilar maqollarning ma'nosini bilish orqali ularni ijodiy fikrlashga va xulosa chiqara bilish kabi qobiliyatlar shakllanadi.

Sifatlarni tushuntirishda, ranglar bilan bog'liq maqollar o'qituvchilarni ushbu mavzuni oson va qiziqarli tarzda o'rgatishda yordam beradi. Misol uchun, "Qizil rang kuchni ifodalaydi" deb aytish orqali o'quvchilarga kuchli, jasur sifatlari bilan tanishtirish mumkin. "Ko'k rang tinchlikni ifodalaydi" degan holda esa, bolalar tinch, mulohazali sifatlarni o'zlashtiradilar. Bularni, albatta, misollar bilan aniq va tiniq tushuntirib sharhlash kerak. Bu kabi tashkil qilingan metodik o'yinlar bolalarni mantiqiy fikrlash, ijodkorlik kabi xususiyatlarini ham shakllanadi.

Bundan tashqari rang bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar orqali ham o'rgatish mumkin. Bunda o'quvchilar bilan birgalikda "Kim chaqqon" o'yinini tashkil qilish mumkin. O'yin quyidagicha amalga oshiriladi: o'quvchilar ikki guruhga bo'linishadi. Har bir guruh o'zlariga nom qo'yishadi va qo'ygan nomlari ham sifat bilan bog'liq holda bo'lishi kerak. Guruhlarga raqamlar tarqatiladi va shu raqam ostida savollar beriladi. Savollarga qaysi guruh tez, aniq va xatosiz javob bersa o'sha guruh g'olib bo'ladi. Albatta, bu ham rang bilan bog'liq holda olib boriladi. Shu tariqa guruhlarga tanlagan raqamlari ostidagi savollar o'qib beriladi.

Birinchi guruhi oq rangi bilan ifodalangan frazealogik birliklarga misollar topib yozishi kerak.

Ikkinci guruhi esa qora rang bilan bog'liq frazeologik birlik yozishlari kerak bo'ladi.

	Baxti qora bo'ldi
--	-------------------

Har bir xalq madaniyatida ranglarga bo'lgan munosabat turlicha bo'lishi mumkin. Ranglarning madaniy kontekstdagi ma'nolari va ularning inson sifatlariga ta'siri ham o'zgacha bo'ladi. Shunday ekan bu yerdagi iboralarni guruhdagi bitta o'quvchi ma'nosini ham izohlab berishi kerak. Shu tariqa o'yinimiz davom qiladi.

**XULOSA.** O'quvchilarni o'qitishda metodik o'yinlarning ahamiyatli bo'lib hisoblanadi. Bunday o'yinlar nafaqat ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilib qolmasdan, balki juda ko'p foydali jihatlarni ham bera oladi.

Guruhlarda tashkil qilinadigan metodik o'yinlar orqali o'quvchilar birgalikda ishlash, fikr almashish va bir-birini hurmat qilish ko'nikmalarni ham rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Har bir tashkil etilgan o‘yinlarda ishtirok etish orqali o‘quvchilar o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini baholay olish imkoniyatiga ham ega bo‘lishadi. Bularning barchasi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi.O‘quvchilarni tez qaror qabul qilish va izchillik bilan fikrlash kabi hayotiy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi.

O‘quvchilarni har tomonlama yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalash, zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishida bu kabi metodik o‘yinlar katta samara va natija beradi. yondosha olishimiz kerak.

Bu metodlar orqali o‘quvchlarni dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi, bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta'minlaydi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. 1.A.P. Karpov, “Rang va nur” (2015) – ranglar psixologiyasi va ularning hissiy ta'siri haqida.
2. 2.B.Mengliyev. O'.Xoliyorov. N.Abdurahmonova. O‘zbek tilidan qo‘llanma. T., “Akademnashr”,2015. 229-bet.
3. D.S. Karimova, “O'qitishda innovatsion usullar” (2019) – sifat va ranglar yordamida ta’lim jarayonini takomillashtirish.
4. 4.D.Sayfutdinova. “Boshlang‘ich sinflarda sifat so’z turkumini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyalari”. Academic research in educational sciendes volume 2 issue 9 2021.
5. M.B. Mirzaev, “Bolalar psixologiyasi” (2020) – bolalar o‘qitishida ranglarning ahamiyati.
6. M.Ashurov “ Ona tili va adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish” 2021-yil.
7. N.M. Tursunova, “Ijodiy fikrlashni rivojlantirish” (2021) – sifatlarni ranglar orqali o‘rganishga bag‘ishlangan bob.
8. Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent-2009. 9.Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.O‘quv qo‘llanma.- T., “Fan va texnologiya”, 2009. 237-bet.
9. 10.G‘afforova T Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011.